

TA'LIM JARAYONI DAVRLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNI LOYIHALASH

Kalit so'zlar: ta'lim maqsadi, ta'lim jarayonini loyihalash . didaktik loyihalash, ta'lim jarayoni ,ta'lim etaloni , ta'lim mazmuni. o'quv material , bosh maqsad .

Annotasiya: Maqolada ta'lim jarayoni davrlarini tashkil etish va boshqarishni loyihalash to'g'risida so'z boradi .Hozirda ta'limjarayoni davrlarini tashkil etish va boshqarishni loyihalash muhim ahamiyatga ega .Shuningdek maqolada aniq misollar orqali xulosa berilgan .

Ключевые слова: цель обучения, проектирование учебного процесса, дидактическое проектирование, процесс обучения, эталон обучения, содержание обучения, учебный материал, главная цель.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы проектирования, организации и управления циклами учебного процесса. В настоящее время проектирование организации и управления циклами учебного процесса имеет большое значение. Также в статье приведены выводы, подкреплённые конкретными примерами.

Keywords: Educational goal, educational process design, didactic design, educational process, educational standard, educational content, learning material, main objective.

Abstract: The article discusses the design of organizing and managing the stages of the educational process. Currently, designing the organization and management of the stages of the educational process is of great importance. In addition, the article provides conclusions based on specific examples.

“Agar ta'lim maqsadlarini aniq yoza olsak, ta'lim jarayonini loyihalash imkoniyatlari ham oshadi. Negaki, ta'lim maqsadi ta'lim jarayonini tizimga keltirishning yetakchi omilidir”,-deb V.P.Bespalko yozgan bo'lsa, “Ta'limni didaktik loyihalash-bu o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siriga ko'ra ta'lim jarayonining akt, bosqich, davr shaklidagi harakatiga mos mazmunni tanlash, maqsad, vositalarni aniqlash, natijalarni oldindan qayd etish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga mo'ljallangan qurilmasini tayyorlashdir”, - deb M.Mahmudov uqtirgan edi . Bu fikrlardan ayonlashayotirki, ta'lim jarayonini ob'ektiv reallikning alohida sohasi sifatida loyihalash uchun mavzu tanlash (1), ta'lim maqsadini aniqlash (2), ta'limni amalga oshirish vositalarini qayd etish (3), erishiladigan natijalarni belgilash (4), ta'lim jarayonining akt, bosqich va davr shaklidagi harakatini rejalashtirish (5) lozim bo'ladi. Shu munosabat bilan o'ta murakkab ijtimoiy hodisalarni, jumladan, ta'lim jarayonini ilmiy loyihalash vositalarini ishlab chiqilganmi, degan savol tug'ilishi tabiiydir.

Hozirgi paytda o'zbek didaktikasida bu savolga ijobiy javob qaytarish imkoniyatlari mavjud. Biz bu yerda B.Adizov,], M.Mahmudov , O.Roziqov kabi olimlar o'tkazgan keyingi izlanishlarda ta'lim etaloni ta'lim jarayonini loyihalashning yetakchi vositasi sifatida asoslandi.

Ta'lim etalonining bosh maqsadi. Namuna uchun keltirilgan ta'lim etalonining bosh maqsadi o'quvchilarni atamalarni, mahalliy, olinma, tarixiy so'zlarni o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llashni o'rgatishdir. Bosh maqsadga binoan bolalarning o'quv-biluv faoliyati lingvistik hodisalarga, ayni holatda termin, olinma, sheva, tarixiy so'zlarga yo'naltiriladi, ularning ta'rifi, bir-biridan farqlari hamda nutqda to'g'ri qo'llash malakalari shakllantiriladi. Binobarin, ta'lim etalonida qayd etilgan bosh maqsadga ko'ra ona tili, shuningdek, boshqa o'quv predmetlarining ham mashg'ulotlarning yo'nalishi, mazmuni, o'rganiladigan bilimlar hajmi, ta'lim vositalari va natijalari belgilanadi.

Ta'lim etalonining ikkinchi tarkibiy qismi ta'lim natijasidir. Ta'lim etalonida qayd etilgan bosh maqsadni amalga oshirish orqali o'quvchilar ta'limdan ko'zlangan natijaga yetib keladi. Ta'lim mazmuni va unga oid natija maktabning normativ hujjatlari-ta'lim rejasi, darslik hamda davlat ta'lim standart (DTS)larida ko'zda tutiladi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, ta'lim etalonining ikkinchi tarkibiy qismi pedagogik normativ talablari asosida shakllantiriladi.

Ta'lim etalonining navbatdagi qismida o'quvchilarning harakatga teng maqsadlari beriladi. O'quvchilarning harakatga teng maqsadlari ta'lim etalonining eng boy, mazmundor tarkibiy qismi bo'lib, unda o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati ham, bolalarning o'qish-o'rganish vositalari ham aks etadi. Bola uchun o'qish-o'rganish harakatga teng maqsadni amalga oshirishdan boshlanadi. Shu tufayli harakatga teng maqsadni ta'lim jarayonining, bu jarayonda o'quvchi o'zlashtirishining ibtidosi deb qaraymiz. Harakatga teng maqsadlarni amalga oshirish orqali o'quvchi ma'lum bir natijaga erishadi. Shu sababli uni, ya'ni harakatga teng maqsadni bola o'zlashtirishining intihosi sifatida qaraymiz. Binobarin, harakatga teng maqsadni ta'lim jarayonining, shuningdek, bolalar o'zlashtirishining ibtidosi va intihosini o'ziga birlashtirgan genetik hujayra shaklida tushunamiz.

Harakatga teng maqsadni ta'lim jarayoni, bu jarayonda o'quvchilar o'zlashtirishining genetik hujayrasi sifatida qaror ekanmiz, uning qator xususiyatlarini ajratamiz.

Har bir harakatga teng maqsadga ma'lum bir o'quv holati mos keladi. Masalan, shunday harakatga teng maqsad qo'yilgan bo'lsin: "atama, mahalliy, olinma tarixiy so'zlarga oid dalillarni kuzatish". Har bir harakatga teng maqsadga ma'lum bir o'quv holati mos keladi. Masalan, shunday harakatga teng maqsad qo'yilgan bo'lsin: "atama, mahalliy, olinma tarixiy so'zlarga oid faktlarni kuzatish" (keltirilgan ta'lim etalonining III rukn).

O'quv holati-bu o'rganilayotgan hodisa bilan bolalarning faol aloqasi demak. O'quv holati ongda shakllanadi, bolalar diqqatini o'rganilayotgan mavzu xususiyatlariga tortadi, o'quvchi o'rganilayotgan voqea, narsaga oid ilk tasavvurlarni shakllantiradi.

Har bir harakatga teng maqsadga qator o'quv topshiriqlari mos keladi. Yuqorida keltirilgan 1-bandga 4 ta o'quv topshirig'i qayd etsa bo'ladi: atamalarni kuzatish, mahalliy so'zlarni kuzatish, olinma so'zlarni kuzatish, tarixiy so'zlarni kuzatish. O'quv topshirig'i-bu o'rganilayotgan o'quv materialining o'zgartirilgan shakli. O'quv materialining o'zgartirilgan shakli qancha rang-barang, ko'p variantlarga ega bo'lsa, ta'lim jarayoni shuncha samarali kechadi.

Har bir harakatga teng maqsadga ma'lum bir vosita ham mos bo'ladi. Aynan misol tariqasida keltirilgan harakatga teng maqsad vositasi-atamalarni [1], mahalliy so'z [2], olinma so'z [3], tarixiy so'z [4]larni kuzatish. Kuzatish-tabiati ato qilgan vosita bo'lib, uning yordamida o'quvchi olinma so'zlarni tarixiy so'zlardan, atamalarni mahalliy so'zlardan farq qiladi. O'quvchi o'zi bilan o'rganilayotgan so'zlar o'rtasiga kuzatish usulini qo'yib ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishadi.

Har bir harakatga teng maqsad amalga oshgach, ma'lum hajmdagi natijaga ham erishiladi. Harakatga teng maqsadlarni amalga oshirish yo'li bilan erishilgan natijalarni mikronatijalar deb baholaymiz. Mikronatijalar o'zaro sintezlashib (qo'shib) makronatijalarga aylanadi.

Ta'lim etalonining so'nggi tarkibiy qismi-rukni "natijani o'lchash me'yorlari va vositalari" deb nomlangan. Ta'lim natijasini o'lchashda ham an'anaviy vosita (diktant, o'quv topshirig'i, nazoart savollari va sh.k.)lardan, ham zamonaviy usul (test, reyting, kompyuter va sh.k.)lardan foydalaniladi. Shunday qilib, ta'lim etaloni bolalarning o'quv yumushlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning kompleks loyihasidir. Shunday ekan, ta'lim jarayoni davrlari ta'lim etalonida qanday aks etadi? Shu savolga javob berish uchun yana ta'lim etaloniga e'tibor qaratamiz.

Shunday qilib, ta'lim etalonida o'quvchilar bosh maqsadi namuna uchun keltirilgan misol "atama, mahalliy, olinma, tarixiy so'zlarni bir-biridan farqlay olish va ularni nutqda to'g'ri qo'llashni o'rganish" shaklida o'quvchiga qarata tuzilgan (ta'lim etalonining 1-rukni qarang). Bosh maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilar 4 ta oraliq maqsadni (atama [1], mahalliy [2], olinma [3], tarixiy [4] so'zlar ta'rifini bilishi va ularni nutqda ishlatishni) o'zlashtirishlari lozim (ta'lim etalonining 2-rukni qarang). Oraliq maqsadlarga yetib kelish uchun bolalar 24 ta

harakatga teng maqsadni amalga oshirishadi (ta'lim etalonining 3-rukniga qarang). Harakatga teng maqsadlarni amalga oshirish paytida ta'lim jarayoni davrlari shakllanishini kuzatamiz.

Dastlabki mashg'ulot ta'lim jarayonining ilk davrlariga mos keladi. Bu davrda o'quvchilar berilgan atama, mahalliy (sheva), olinma, tarixiy so'zlarni kuzatishadi (1), atamalar bilan olinma (2), mahalliy (3), tarixiy (4) so'zlarni o'zaro chog'ishtiradi, berilgan matndan atama, mahalliy, olinma, tarixiy so'zlarni ajratib yozishadi (5), mustaqil xulosa chiqarishadi, darslikda berilgan ta'riflarni o'qishadi (6), adabiyot darsligidan tarixiy va mahalliy so'zlarning ishlatishiga misollar izlab topishadi (7), test topshirig'ini bajarishadi (8). O'quvchi harakatga teng maqsadlarga muvofiq o'quv holatlarida ishtirok etib, o'quv materialini ko'nikma darajasida o'zlashtiradi. O'zlashtirish natijasi testlashtiriladi. Testlashtirish natijalariga ko'ra ta'limga o'zgartirish, tuzatishlar kiritiladi.

2-mashg'ulotda atama, mahalliy, olinma, tarixiy so'zlar to'g'risidagi tasavvurlar yana bir bor takrorlanadi. Buning uchun o'quvchilar fizika, matematikaga oid atamalarni darsliklardan izlab topishadi (9), qavs ichida keltirilgan olinma so'zlarni berilgan jadval-qurilish, kutubxona, san'at, sportga oid so'zlar guruhlariga ajratishadi (10), tarixiy so'zlarga misol keltirib, gaplar tuzish (11), berilgan mahalliy so'zlarning adabiy tildagi variantlarini topish (12), atama va mahalliy so'zlarning farqlarini tushuntirish (13), tarixiy va olinma so'zlarga misollar tanlash (14), berilgan matndan atamalarni saylab yozish (15), ona tili va adabiyot darslarida qo'llanadigan atamalarga aytilgan miqdorda misollar tanlash (16), shevada aytilgan so'zlarning adabiy tildagi ekvivalentlarini topish (17), test topshiriqlarini bajarish (18)ga oid o'quv yumushlari bajariladi. Bu o'quv yumushlari ta'lim jarayonining ikkinchi davriga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning tayyorgarligi malaka darajasiga ko'tariladi.

3-mashg'ulot ta'lim jarayonining uchinchi davri-bilim va malakalarni umumlashtirish davriga mos keladi. Shu tufayli bu mashg'ulotda, binobarin, bu davrda umumlashtirish xarakteridagi o'quv yumushlaridan foydalaniladi: o'qituvchi diktovkasidan atama, olinma, mahalliy, tarixiy so'zlarni to'rt guruhga ajratib yozish (19); berilgan so'zlarni keng va tor iste'moldagi so'zlar guruhlariga ajratib yozish (20); atama, olinma, mahalliy, tarixiy so'zlarni o'zaro chog'ishtirib, ularning farqlarini aytib berishga tayyorlanish (21); ona tili va adabiyot darsliklaridan atama, olinma, mahalliy, tarixiy so'zlarga misollar tanlash va "So'z boyligi-el boyligi" mavzusida bog'li nutq tuzish (22); o'zlashtirishning tushuncha darajasiga mo'ljallab tuzilgan 3-zinaga oid nazorat testlarini bajarish (23).

Adabiyotlar.

- 1.Маҳмудов М.Ҳ. Таълим эталони. –Бухоро, 1999. –54 б.
- 2.Адизов Б.Р. Маълумот мазмуни ва таълим мазмуни тушунчаларига доир баъзи мулоҳазалар. // Педагогик маҳорат ж. 2003. 1-сон. –17-19-бет.
- 3.Розиқов ва бошқалар. Таълим технологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1999. –71 б
4. Беспалько В.П. Основы теории педагогических систем. - Воронеж, 1997.-95 с.